



## SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2024- yil yanvar-oktabr oylari  
uchun dastlabki ma'lumot

## SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi:  
(67) 236-70-00*



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Sirdaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-oktabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 525,8 mln AQSH dollariga yetdi va 2023-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 182,7 mln AQSH dollariga yoki 25,8 % ga kamaygan.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024- yil yanvar-oktabr, mln AQSH dollar)



### Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: 525,8 -25,8 %

 Saldo

(2023- y.: 708,4)

2024- y.: - 88,5 (2023 y.: - 152,8)



### Eksport

2024- y.: 218,6 -21,3 %

 Tovarlar: 214,8

(2023- y.: 277,8)

 Xizmatlar: 3,8



### Import

2024- y.: 307,1 -28,7 %

 Tovarlar: 307,1

(2023- y.: 430,6)

 Xizmatlar: -

**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasida O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo'shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 218,6 mln AQSH dollariga (21,3 % ga kamaydi) va import hajmi 307,1 mln AQSH dollariga (28,7 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 88,5 mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



### SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-oktabr, mln AQSH dollari)

Rossiya	XXR	Afg'oniston	Qozog'iston	Turkiya
<b>TSA – 87,8</b>	<b>TSA – 115,8</b>	<b>TSA – 89,0</b>	<b>TSA – 154,1</b>	<b>TSA – 12,3</b>
Eksport: 54,3 Import: 33,5  16,7 %	Eksport: 27,9 Import: 87,9  22,0 %	Eksport: 85,0 Import: 4,0  16,9 %	Eksport: 20,3 Import: 133,8  29,3 %	Eksport: 5,0 Import: 7,3  2,3 %
<b>Ukraina</b>	<b>Pokiston</b>	<b>Hindiston</b>	<b>Tojikiston</b>	<b>Qirg'iz Respublikasi</b>
<b>TSA – 3,4</b>	<b>TSA – 9,5</b>	<b>TSA – 5,3</b>	<b>TSA – 4,8</b>	<b>TSA – 8,0</b>
Eksport: 1,4 Import: 2,0  0,7 %	Eksport: 7,1 Import: 2,4  1,8 %	Eksport: 0,0 Import: 5,3  1,0 %	Eksport: 4,5 Import: 0,3  0,9 %	Eksport: 3,3 Import: 4,7  1,5 %

Sirdaryo viloyati jahoning 51 ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (16,7 %), XXRda (22,0 %), Afg'onistonda (16,9 %), Qozog'istonda (29,3 %), Turkiyada (2,3 %) va Hindiston (1,0 %) qayd etilgan.



## SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

*(yanvar-oktabr, mln AQSH dollar)*


Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
<b>Rossiya</b>	<b>98,6</b>	<b>109,3</b>	<b>87,8</b>
	<i>Eksport</i> 50,7	49,0	54,3
	<i>Import</i> 47,9	60,2	33,5
<b>XXR</b>	<b>107,4</b>	<b>145,2</b>	<b>115,8</b>
	<i>Eksport</i> 41,0	41,6	27,9
	<i>Import</i> 66,4	103,8	87,9
<b>Germaniya</b>	<b>7,9</b>	<b>3,8</b>	<b>4,7</b>
	<i>Eksport</i> 1,2	0,2	0,7
	<i>Import</i> 6,7	3,7	4,0
<b>Qozog'iston</b>	<b>178,9</b>	<b>192,3</b>	<b>154,1</b>
	<i>Eksport</i> 20,1	19,6	20,3
	<i>Import</i> 158,8	172,6	133,8
<b>Turkiya</b>	<b>28,9</b>	<b>30,9</b>	<b>12,3</b>
	<i>Eksport</i> 16,2	13,7	5,0
	<i>Import</i> 12,7	17,2	7,3
<b>Ukraina</b>	<b>7,3</b>	<b>1,1</b>	<b>3,4</b>
	<i>Eksport</i> 0,0	0,0	1,4
	<i>Import</i> 7,3	1,1	2,0
<b>Latvia</b>	<b>1,9</b>	<b>8,3</b>	<b>1,6</b>
	<i>Eksport</i> -	0,2	1,3
	<i>Import</i> 1,9	8,1	0,3
<b>Fransiya</b>	<b>1,0</b>	<b>1,9</b>	<b>1,6</b>
	<i>Eksport</i> 0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i> 1,1	1,9	1,6

Davomi

	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>9,5</b>	<b>10,1</b>	<b>8,0</b>
	<i>Eksport</i>	2,7	3,7	3,3
	<i>Import</i>	6,8	6,4	4,7
	<b>Afg'oniston</b>	<b>90,9</b>	<b>130,9</b>	<b>89,0</b>
	<i>Eksport</i>	89,8	130,6	85,0
	<i>Import</i>	1,1	0,3	4,0
	<b>Belarus</b>	<b>1,3</b>	<b>1,4</b>	<b>1,9</b>
	<i>Eksport</i>	0,5	0,3	0,8
	<i>Import</i>	0,8	1,1	1,1
	<b>Hindiston</b>	<b>1,3</b>	<b>9,1</b>	<b>5,3</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	1,3	9,1	5,3
	<b>BAA</b>	<b>0,3</b>	<b>0,0</b>	<b>0,4</b>
	<i>Eksport</i>	0,3	0,0	0,0
	<i>Import</i>	0,0	0,0	0,4
	<b>Tojikiston</b>	<b>13,9</b>	<b>6,0</b>	<b>4,7</b>
	<i>Eksport</i>	11,9	5,2	4,4
	<i>Import</i>	2,0	0,8	0,3
	<b>Eron</b>	<b>5,3</b>	<b>3,5</b>	<b>2,4</b>
	<i>Eksport</i>	9,5	10,1	1,5
	<i>Import</i>	2,7	3,7	0,9
	<b>Pokiston</b>	<b>0,0</b>	<b>0,2</b>	<b>9,5</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,1	7,1
	<i>Import</i>	0,0	0,1	2,4
	<b>Italiya</b>	<b>44,7</b>	<b>5,0</b>	<b>0,9</b>
	<i>Eksport</i>	0,5	0,0	0,0
	<i>Import</i>	44,2	5,0	0,9
	<b>Polsha</b>	<b>1,5</b>	<b>1,8</b>	<b>1,0</b>
	<i>Eksport</i>	0,8	1,0	0,1
	<i>Import</i>	0,7	0,8	0,9




## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-oktabr, mln AQSH doll.)\*



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani 35,0 % ulush bilan 184,2 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri 0,6 % ulush bilan 2,9 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

## SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKLARI VA BOSHQA XORIJY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, mln AQSH dollarida)



2024- yil yanvar-oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 49,6 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 4,4 % ga ko‘paydi.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 31,7 % ga kamayib jami TSAdagi ulushi 50,4 % ni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-oktabr holatiga ko'ra, 260,9 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport 84,9 mln AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 176,0 mln AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



## SIRDARYO VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-oktabr, mln AQSH dollari)

### Rossiya

TSA – 87,8  
Eksport – 54,3  
Import – 33,5



### Qozog'iston

TSA – 154,1  
Eksport – 20,3  
Import – 133,8



### Qirg'iz Respublikasi

TSA – 8,0  
Eksport – 3,3  
Import – 4,7



### Belarus

TSA – 1,9  
Eksport – 0,8  
Import – 1,1



### Tojikiston

TSA – 4,8  
Eksport – 4,5  
Import – 0,3



### Ukraina


TSA – 3,4  
Eksport – 1,4  
Import – 2,0



Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (16,7 %), Qozog'iston (22,0 %) hamda Qirg'iz Respublikasi (1,5 %) davlatlari bilan qayd etildi.

## SIRDARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-oktabr, mln AQSH dollarari, ulushi, % da)



Jami tashqi savdo  
aylanmasidagi ulushi

47,9 %

Jami eksportdagagi ulushi

36,0 %

Jami importdagagi ulushi

56,4 %



Sirdaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 251,8 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi 78,7 mln AQSH dollarari, import hajmi esa 173,1 mln AQSH dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtaida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




## SIRDARYO VILOYATINING EKSPORTI (2024- yil yanvar-oktabr)



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyori larni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksport hajmi 218,6 mln AQSH dollari qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 21,3 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-oktabr ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinnlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinnlarda – XSST) ishlataladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## SIRDARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (yanvar-oktabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Min AQSH dollarri		O‘zgarish sur’ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	277,8	218,6	113,0	78,7	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	152,4	103,8	130,7	68,0	54,9	47,5
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,0	3,9 m.	68,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	6,8	10,0	62,5	147,7	2,4	4,6
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xhash materiallar	0,0	0,8	57,9	28,8 m.	0,0	0,3
Hayvon va o’simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,0	0,0	8,0	44,9	0,0	0,0
Kimyoiy vositalar va shunga o‘xhash mahsulotlar	12,4	5,9	89,7	47,1	4,5	2,7
Sanoat tovarlari	79,2	69,2	91,7	87,4	28,5	31,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	5,4	4,7	72,7	86,4	1,9	2,1
Turli xil tayyor buyumlar	19,5	20,2	98,8	103,4	7,0	9,2
Xizmatlar	1,9	3,8	96,4	2,1 m.	0,6	1,9

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,1 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (31,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (47,5 %) va turli xil tayyor buyumlar (9,2 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.



## SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2024-yil yanvar-oktabr)


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollarri	2023- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirk hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	76 508,1	59,2
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	126,1	49,0 m.
Sabzavotlar va mevalar	26 835,6	117,0
Boshqa joyda tasniflanmagan oziq-ovqat mahsulotlari va pereparatlar	20,2	74,4
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	59,6	8,4 m.
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	7 387,4	2,0 m.
Qog'oz massasi va makulatura	1 464,2	60,8
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 740,1	46,7
Birlamchi shakldagi bo'limgan plastmassalar	2 570,6	69,4
O'g'itlar (272 guruxiga kiritilgan o'g'itlardan tashqari)	585,9	34,1

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollarri	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	45 888,0	84,8
Ruda bo'limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	8 095,6	76,9
Cho'yan va po'lat	22,0	3,0
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	14 270,8	106,3
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalarini</b>		
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyoj qismlari	90,8	11,8 m.
Sanoat uchun maxsus bo'limgan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	4 311,4	87,1
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	19 613,9	105,7
Har xil tayyor buyumlar	438,2	86,6
Mebel va uning detallari	78,7	148,0

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kirdi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida MDH mamlakatlariga 84,9 mln AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 38,8 % ni tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln AQSH dollari)



2024- yil yanvar-oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi, Afg'oniston va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 91,6 % ni tashkil etdi.



### VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-oktabr, % da)






## SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARI BILAN AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-oktabr, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Rossiya	54 281,9	49 025,4	96,6	110,7	7	5
Turkiya	13 666,6	5 009,1	84,2	36,6	8	14
XXR	41 592,5	27 853,8	101,3	66,9	5	10
Qozog'iston	19 706,8	20 302,5	97,6	103,0	6	7
Afg'oniston	130 623,5	85 033,4	145,5	65,1	1	12
Qirg'iz Respublikasi	3 680,8	3 267,9	136,3	88,9	2	8
Tojikiston	5 173,9	4 493,3	43,4	86,8	11	9
BAA	69,0	99,2	25,2	143,6	14	4
Pokiston	4 321,6	7 106,0	44,5	164,4	10	3
Egipt	279,2	826,8	0,0	2,9 m.	16	1
Eron	2 369,4	1 450,9	120,4	61,2	4	13
Belarus	324,0	811,4	64,1	2,5 m.	9	2
Polsha	990,5	161,2	131,4	16,3	3	17
Ozarbayjon	230,1	244,4	19,8	106,2	15	6
Turkmaniston	231,5	59,2	29,4	25,6	13	15
Buyuk Britaniya	98,6	64,5	0,0	65,4	17	11
AQSH	73,4	14,9	38,6	20,3	12	16



## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2024- yil yanvar-oktabr, mln AQSH doll.)



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani 26,0 % bilan 56,7 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri 0,9 % bilan 2,0 mln AQSH dollarini tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-oktabr oylarida 72,4 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 5,1 ming tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Afg'oniston (20,2 %), Pokiston (18,7 %), Qozog'iston (31,1 %), hamda XXR (5,2 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-oktabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 26,8 mln AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 17,0 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 12,3 % ni tashkil etdi.

### MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-oktabr, qiymati)



Pomidor	Karam	Qovun-tarvuz	Piyoz
<b>232,3 ming AQSH dollari</b>	<b>1 000,0 ming AQSH dollari</b>	<b>2 682,8 ming AQSH dollari</b>	<b>5 137,2 ming AQSH dollari</b>
257,2 tonna	3 989,4 tonna	7 773,0 tonna	28 452,2 tonna
Uzum yangi yoki quritilgan	Grek yong'og'i	No'xat	Loviya
<b>227,9 ming AQSH dollari</b>	<b>13,7 ming AQSH dollari</b>	<b>4 346,9 ming AQSH dollari</b>	<b>5 844,6 ming AQSH dollari</b>
172,0 tonna	8,9 tonna	15 054,3 tonna	3 803,3 tonna

## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-oktabr)

Davlatlar	Tonna	Ming. AQSH dollarri	Ulushi, % da *
 Eron	360,0	500,4	1,9
 Pokiston	16 318,4	5 011,8	18,7
 Qozog‘iston	27 042,2	8 336,2	31,1
 XXR	1872,0	1 407,8	5,2
 Afg‘oniston	14 106,7	5 411,2	20,2
 Latviya	3 521,7	1 262,8	4,7
 Tojikiston	406,6	178,7	0,7
 Boshqa davlatlar	8 808,3	4 726,7	17,9

\* qiymat ifodasidan



2024- yil yanvar-oktabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog‘istonga to‘g‘ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 31,1 %) tashkil qilmoqda.



## SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI




2024- yilning yanvar-oktabr oylarida import hajmi 307,1 mln AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 71,3 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalar (20,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (38,5 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (16,7 %) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 28,7 % ga kamaydi va 307,1 mln AQSH dollarini tashkil etdi.



## SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-oktabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln AQSH dollarari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami import</b>	<b>430,6</b>	<b>307,1</b>	<b>112,1</b>	<b>71,3</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	156,4	118,3	101,6	75,6	36,3	38,5
Ichimliklar va tamaki	0,2	3,8	0,0	17,8 m.	0,0	1,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	14,8	7,3	80,7	49,3	3,4	2,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	31,7	27,8	2,7 m.	87,9	7,3	9,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	8,1	1,7	141,3	21,7	1,9	0,6
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	64,2	51,3	95,1	79,9	14,9	16,7
Sanoat tovarlari	24,0	24,9	104,3	103,9	5,6	8,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	114,7	61,5	119,0	53,6	26,7	20,0
Turli xil tayyor buyumlar	12,5	5,7	168,0	45,3	2,9	1,8
Boshqa tovarlar	4,0	4,8	0,0	116,7	1,0	1,6



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-oktabr)


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollarri	2023- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	94 601,7	69,5
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	2 466,1	53,0 m.
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	3 173,2	39,2
Tirik hayvonlar , 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	10 319,1	140,2
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	788,8	21,4
Probka va yog'och-taxtalar	4 096,9	80,6
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	394,6	7,0
Ko'mir, koks va briketlar	19 583,9	75,2
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	1 749,8	21,7
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 762,1	145,8
Birlamchi shakldagi plastmassalar	26 011,4	82,2
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	8 750,3	124,7
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	7 889,1	55,7

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	6 667,9	110,0
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2 849,7	73,9
Ruda bo'limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	2 884,7	64,4
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	11 168,4	164,0
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalarini</b>		
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	757,6	7,6
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	21 605,0	36,1
Sanoat uchun maxsus bo'limgan mashinalar va ularning detallari	18 141,3	48,6
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	4 386,8	95,4
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	3 331,6	65,5
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	901,1	48,6
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalarini uchun armatura va mahkamlash moslamalari	1 012,3	20,4
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	300,2	132,4

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

 2024- yil yanvar-oktabr oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 57,3 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 1,3 % ga ko'paydi.

### MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln AQSH dollari)



 2024- yil yanvar-oktabr oylarida Sirdaryo viloyati 49 ta davlatlar bilan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



### SIRDARYO VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-oktabr, % da)





**SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI  
HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI**  
(yanvar-oktabr, yillar kesimida)


Davlatlar	Ming AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Germaniya	3 663,3	3 964,8	63,8	108,2	14	9
Rossiya	60 214,5	33 507,1	96,6	55,6	11	14
XXR	103 836,0	87 950,2	101,3	84,7	9	11
Qozog'iston	172 633,3	133 762,6	97,6	77,5	10	15
Turkiya	17 259,9	7 324,4	84,2	42,4	12	16
Koreya Respublikasi	3 160,5	5 592,9	15,4	176,9	18	6
Litva	8 205,4	250,5	4,3 m.	3,1	1	19
Vengiriya	1 408,3	2 156,1	188,8	153,1	2	7
Bolgariya	3 780,1	310,2	132,2	8,2	6	18
Turkmaniston	36,8	134,4	29,4	3,6 m.	16	5
Belarus	1 066,3	1 126,3	64,1	105,6	13	10
Bangladesh	0,0	0,0	136,4	0,0	4	20
Italiya	5 012,4	822,9	11,2	16,4	19	17
Buyuk Britaniya	95,2	585,9	0,0	6,1 m.	20	4
Eron	1 178,9	962,8	120,4	82,6	8	12
Polsha	812,8	835,8	131,4	146,7	7	8
AQSH	47,5	650,8	38,6	13,6 m.	15	3
Afg'oniston	261,1	3 964,8	145,5	15,1 m.	3	2
Azarbajyon	20,6	486,6	19,8	23,5 m.	17	1
Qirg'iz Respublikasi	6 397,1	4 688,2	136,3	73,3	5	13



## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR

### KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-oktabr, mln AQSH doll.)



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani 41,5 % bilan 127,4 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri 0,3 % bilan 0,9 mln AQSH dollarini tashkil etdi.



## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2024- yil yanvar-oktabr oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi 61,5 mln AQSH dollarini tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan 46,4 % ga kamaydi va importning umumiyligi hajmidagi ulushi 20,0 % ni tashkil qildi.



### MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-oktabr)




2024- yil yanvar-oktabr oylarida mashina va transport asbob-uskunalarini importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 53,2 mln AQSH dollariga kamaydi. Ushbu tovarlarni Sirdaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR — 39,1 mln AQSH dollari (63,5 %), Hindiston — 4,0 mln AQSH dollari (6,5 %) va Turkiya — 5,4 mln AQSH dollari (8,8 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-oktabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 24,9 mln AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,9 % ga ko'paydi hamda importning umumiyligi hajmidagi ulushi 8,1 % ga yetdi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-oktabr)

**10 636,1 ming AQSH doll.  
ulushi – 42,7 %**



Rossiya Federasiyasi

**4 499,3 ming AQSH doll.  
ulushi – 18,0 %**



XXR

**298,0 ming AQSH doll.  
ulushi – 1,2 %**



Turkiya

**5 489,0 ming AQSH doll.  
ulushi – 22,0 %**



Qozog'iston

**859,9 ming AQSH doll.  
ulushi – 3,4 %**



Belarusiya



Sanoat mahsulotlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (11,2 mln AQSH dollar), metallardan tayyorlangan buyumlar (2,8 mln AQSH dollar), ruda bo'limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar (2,9 mln AQSH dollar) va boshqalardan tashkil topgan.